O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 60230600-2.01
2021-yil “___”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021-yil “___”_____

“MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK”
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000 - Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230600 – Noshirlik ishi

Samarqand - 2021

Fan dasturi "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrasining 2021-yil 25 - may dagi 9 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. I. Sulaymonov**

Fan dasturi Filologiya fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26 - may dagi 8 -sonli bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi **prof. A.Pardayev**

Fakultet uslubiy kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

"Kelishildi"

SamDU o'quv ishlari

bo'yicha prorektor: **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
MVMT4003	2021-2022	2	3

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Tanlov	O‘zbek	4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
	“Matnshunoslik va manbashunoslik”	30	60	90

2. **I. Fanning mazmuni**

“Matnshunoslik va manbashunoslik” fani bo’yicha tuzilgan dastur bakalavr talabalarning yetuk filolog sifatida shakllanishi uchun zarur bo’lgan tasavvurlar, bilimlar va ko’nikmalarga mo’ljallab tuzilgan. Yuksak malakali filolog bo’lish uchun mumtoz adabiy matnlarni asliyatda o’qish, o’zbek matnshunosligining nazariy va amaliy muammolarini bilish zaruratining mavjudligi; butunjahon xalqlari madaniyati to’qnashuvi davrida milliy dunyoqarashni saqlab qolish va umuminsoniy qadriyatlarni milliy kalorit bilan boyitish qonuniyatlarini o’rganishga ehtiyojning mavjudligi; insoniyat tamaddunining adabiy munosabatlar bilan bog’liq umumiy qonuniyatlarini, ma`naviyatimiz takomilida o’z o’rniga ega adabiy-tarixiy voqelikni anglashi bilan tavsiflanadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Matnshunoslik va manbashunoslik fanining predmeti va tarixiy ahvoli

Qo‘lyozma matn va manbalarni xillash, tasniflash, saralash qoidalari. Qo‘lyozma va toshbosma nusxalarning tarmoqlanishi. Asos va yordamchi nusxalarni tanlash tamoyillari. Ishonchli nusxani tiklash mezonlari. Manbalarni qidirib topish, tartibga solish va keyingi ilmiy foydalanish uchun tayorlash nazariyasi hamda uslubi. Kitobat san'ati, Xattotlik san'ati.

2-mavzu. Manbalarning tur va shakllari

Asliyat va tabdil masalasi. Yig‘ma va ilmiy-tanqidiy matn. Ilmiy-tanqidiy matn dastxat nusxaning shartli taqdimi sifatida. Tanqidiy matnda ilmiy apparatning o‘rni. Matnga havola qilingan ilmiy ko‘rsatkichlar tarkibi.

3-mavzu. Markaziy Osiyoda qog`oz ishlab chiqarish va kitobatchilik tarixi

Qo‘lyozmalarni kitob holiga keltirish jarayoni. Qog‘ozrez (qog‘oz tayyorlovchi), xattot (ko‘chiruvchi), lavvoh (sarlavha va jadvallarni ziynatlovchi), rassom (qo‘lyozmaga miniatyuralar ishlovchi) va sahhof

(muqovasoz) xizmatlari. Kitobning tuzilishi: basmala, hamd, unvon, matn. Ichki unvonlar, hoshiya, poygir, kolofon. Qo'lyozma kitobning nodirlik xususiyatlari. Qo'lyozma sanasini aniqlash mezonlari. Qog'oz turlari. Husnixat. Nasta'liq va nasx. Kolofon. Unvon. Poygir.

4-mavzu. Matnshunoslikning rivojlanish yo`nalishlari

Uning dastxat, nusxa, qoralama, oqqa ko'chirma, ko'chirma nusxa (kopiya), arxetip, variant kabi muammoli masalalari va asosiy tushunchalari; atribusiya, sanasini belgilash, sharhlash, kon'ektura (buzilgan, xiralashgan eski èzuvni taxmin bilan tuzatish, tiklash), kotib yo'l qo'ygan xatolarni o'rganish. Amaliy matnshunoslik muayyan asar matni tarixi va uning manbalarini o'rganish, èzilish davri va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash (atribusiya) yo'li bilan muallif varianti èki unga yaqin eng ishonchli variantni tanlab, shu variant asosida matnni tiklaydi.

5-mavzu. XI—XIV asr matnshunosligining xususiyatlari

Koshg'ar adabiy maktabi. «Devonu lug'atit-turk» da xalq og'zaki ijodi matnshunosligi. Uyg'ur yozuvidagi asarlar. Beruniy va qadimiy manbalar. Ahmad Yassaviy «Hikmatlar»i matni muammosi.

6-mavzu: Temuriylar davrida manbashunoslik va matnshunoslik masalalari

Temuriylar davrida qo`lyozma manbalarni yig`ish, to`plash, nusxa ko`cherish ishlari. Hirot matnshunoslik maktabi. Yangi nusxalar yaratish yo'lida. Yangi yozuv turlarining yuzaga kelishi. Boysunqur Mirzo, G'arib Mirzo, Badiuzzamon kabi Temuriy hukmdorlarning mohir xattotlar ham ekanligi.

7-mavzu: Qo`lyozma manbalar

Matnshunoslikda kotibning mavqei. Kitobat san'ati, kitobning tuzilishi. Basmala har bir kitob «bismillo»dan boshlangan. Basmala, hamd, matn, ichki unvon, hoshiya, poygir, kolofon

8-mavzu: Matnlarni nashrga tayyorlash. Matn turlari

Nashr turlarining o'zaro farqli va umumiy jihatlari. Ilmiy nashr turlari. Ilmiy nashrlar matnshunosligidagi shartli belgilar. Matn nashri va nusxa nashri.

III. Amaliy (yoki <u>seminar yoki laboratoriya</u>) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Matnshunoslikning nazariy asoslari
2. Ko'p nusxali qo'lyozma ustida ishlash

	3. Yagona nusxali qo'lyozma ustida ishlash prinsiplari 4. Tazkira, devon, kulliyot ва kajkul 5. Xattotlik 6. Abjad hisobi 7. Tarjima asarlar matni bilan ishlash **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar** Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Xalq og'zaki ijodi matnlarini o'rganish 2. Qadimiy matnlarda sharh an'anasi 3. Qadimgi turkiy manbalar 4. Qadimgi turkiy manbalarni to'plash. 5. Manbashunoslikning rivojlanish yo`nalishlari 6. Matnshunoslikning rivojlanish yo'nalishlari 7. Tarjima asarlar matnini o'rganishning ilmiy asoslari Tilning tizim sifatidagi mohiyati.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Fanning tushuncha kategoriyalari tizimi va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo'nalishlarini ma'naviy-ma'rifiy tahlil qilish; - talabalar gloss, kon`ektura va interpolyatsiyaga oid Sharq va G'arbdagi ilmiy qarashlar, hoshiya, sharh va kiritma matnlarning xos xususiyatlari, gloss, kon`ektura va interpolyatsiyaga oid Sharq va G'arbdagi ilmiy qarashlar xususida ma`lumotga ega bo`lish; - germenevtika va talqinlarning matn mukammalligini ta`minlashdagi o'rnini tushuntirish.Tushuntirish ilmining matn mukammaligini ta`minlashdagi o'rni haqida bilimlar bazasiga ega bo'lish; - matnshunoslik va manbashunoslikning muammolari va istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish; - ko'p nusxali qo'lyozmalarni qiyoslash, tayanch manbani aniqlash, matnni muqoyasa etish;

	- bayoz, tazkira, kajkul, devon, kulliyotlarning qo'lyozma manba sifatidagi xususiyatlari haqida ko`nikma hosil qilish; - mumtoz asarlarni o'qitish malakasi va tadqiqot metodlarini qo'llay olish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; • Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т. : Akademnashr, 2015. 2. Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. Т.: 2013. 3. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. Тошкент, 2000. 4. Эркинов А. Матншуносликка кириш. Т. : Ўқитувчи, 1997. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Алишер Навоий. Ҳайрат-ул-аброр. Илмий танқидий матн. (Тузувчи: Порсо Шамсиев), –Т.: Фан, 1970. 2. Исҳоков Ф. Гулханийнинг "Зарбулмасал" асари. Т.: "Фан", 1976. 3. Йўлдошев Иброҳим. Ўзбек китобатчилик терминологияси. – Т.: Фан, 2004. 4. Муниров Қ., Носиров А. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Т.: Фан, 1970. 5. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Фан, 1971. 6. Навоий дастхати. (Наводирун-ниҳоя). Нашрга тайёрловчи, сўзбоши муаллифи С. Ғаниева. – Т.: Фан, 1991. 7. Сирожиддинов Ш. XV–XVI асрлар тарихий ва тазкира-эсдалик асарларида Алишер Навоий ҳаёти ва фаолияти талқини. – Самарқанд: Зарафшон, 1997. 8. Султонов И. Навоийнинг "Мезонул–авзони" ва унинг критик тексти: филол.фан.ном.дисс. – Т.: Асосий кутубхона. РД/1, 1947

	Axborot manbalari (saytlar): 1. http://kutubxona.uz 2.http://literature.uz 3.http://ziyonet.uz. 4.http://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/matnshunoslik-davr-talablari-darajasidami-davra-suhbati-2010 5. https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/matnshunosligimiz-yutuqlari/ 6. https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/bobur-devonining-sahih-matni-bormi/ 7.http://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/qosimjon-sodiqov-qudratulla-omonov-ilmiy-tanqidiy-matn-yaratish-zamon-talabi-2010
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2021-yil ___-_____ dagi ____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: M.J.Xasanova - SamDU, mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi o`qituvchisi (PhD) A.A.Razzoqov – SamDU, mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi o`qituvchisi (PhD)
9.	**Taqrizchilar:** I.Sulaymonov SamDU, mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (ichki) Sh.Hasanov – SamDU professori, filologiya fanlari doktori (tashqi)